

# I S T E ' M O L B O Z O R I


**(dastlabki ma'lumot)**

2018 yil yanvar-

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 1 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 25,7 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,4 foizga ko'payishiga olib keldi.

***2018 yil yanvar oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,  
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda )***



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (18,6 foiz), Shayxontoxur (16,7 foiz), Uchtepa (12,0 foiz), Bektemir (12,0 foiz) va Yunusobod (9,4 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 0,8 mln. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar oyida 0,6 mln. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Bektemir tumani (6,8 mln. so`m), Chilonzor tumani (1,5 mln. so`m) Shayxontoxur (0,9 mln. so`m) va Uchtepa tumanida (0,9 mln. so`m) kuzatildi.



### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>760,4</b>	<b>99,1</b>
tumanlar:		
Uchtepa	860,5	98,1
Bektemir	6799,2	96,1
Yunusobod	539,9	216,7
Mirzo Ulug'bek	296,9	46,4
Mirobod	898,3	163,0
Shayxontoxur	947,8	317,3
Olmazor	204,7	72,2
Sergeli	600,8	32,2
Yakkasaroy	883,4	38,4
Yashnabod	462,0	56,6
Chilonzor	1458,0	388,0

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 58,6 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 291,4 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 15,7 foizni tashkil etdi.

